

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“TIL PORTFELI” ASOSIDA TALABALARNING O‘QUV-BILUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODEL VA UNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MEKANIZMLARI

Gulbar Sanoyeva

Al Fraganus universiteti, professor v.b.

e-mail: togaevazamira55@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-7784-7775>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada “Til portfeli” asosida talabalarining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelning mazmuni, tarkibiy komponentlari va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yoritilgan. Portfolio pedagogikasi, learner autonomy, self-regulated learning, refleksiv ta‘lim va formativ baholashga oid ilmiy yondashuvlar integratsiyasi asosida maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik, refleksiv-baholash va natijaviy komponentlardan tashkil topgan strukturaviy-funksional model ishlab chiqilgan. Modelni amaliyotga joriy etish diagnostik-tayyorlov, maqsadni individuallashtirish, faoliyat-portfoliolash, refleksiya-baholash hamda korreksion-prognostik bosqichlarda tashkil etilishi asoslangan. Talabalarining o‘quv-biluv faoliyatini baholash uchun motivatsion-regulyativ, kognitiv-operatsion, refleksiv-baholash va prognostik-avtonom mezonlar ajratilgan. Taklif etilgan model tashqi boshqaruvga asoslangan o‘quv faoliyatidan mustaqil, refleksiv va o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirilgan faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: til portfeli, metodik model, o‘quv-biluv faoliyati, learner autonomy, self-regulated learning, e-portfolio, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, formativ baholash, individual ta‘lim trayektoriyasi.

МЕТОДИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ «ЯЗЫКОВОГО ПОРТФЕЛЯ» И МЕХАНИЗМЫ ЕЁ ВНЕДРЕНИЯ В ПРАКТИКУ

Гулбар Саноева

Университета Альфраганус, профессор и.о

Аннотация.

В статье проведён сравнительный анализ опыта Сингапура, Южной Кореи, Эстонии, Финляндии и Израиля в области цифровизации управления специализированными образовательными учреждениями и учреждениями, предназначенными для обучения одарённых учащихся. На примере каждой страны изучены архитектура национальной образовательной информационной системы, степень централизации управления, культура использования данных и направления работы с одарёнными учащимися. По результатам анализа выделены три основные модели цифрового управления — централизованная интеграционная, децентрализованная платформенная и смешанная (гибридная), а также оценены их сильные и слабые стороны. Автором предложена четырёхэтапная модель адаптации зарубежного опыта к условиям Узбекистана, для каждого этапа которой определены целевые показатели и меры по снижению рисков.

Ключевые слова: языковой портфель, методическая модель, учебно-познавательная деятельность, автономия обучающегося, саморегулируемое обучение, электронное портфолио, рефлексия, самооценка, формативное оценивание, индивидуальная образовательная траектория.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DIGITAL TRANSFORMATION OF SPECIALIZED EDUCATIONAL INSTITUTION MANAGEMENT AND A MODEL FOR ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

Sanoyeva Gulbar

Alfraganus University

Abstract.

This article examines the content, structural components, and practical implementation mechanisms of a methodological model aimed at developing students' learning and cognitive activity through a Language Portfolio. The study analyzes scholarly approaches related to portfolio pedagogy, learner autonomy, self-regulated learning, reflective learning, and formative assessment. Based on these theoretical foundations, a

structural-functional model consisting of goal-oriented, content-related, process-technological, reflective-assessment, and outcome-based components is proposed. The implementation of the model is organized through diagnostic-preparatory, goal-individualization, activity-portfolio, reflection-assessment, and corrective-prognostic stages. Motivational-regulatory, cognitive-operational, reflective-assessment, and prognostic-autonomous criteria are identified for evaluating the development of students' learning and cognitive activity. The proposed model is intended to facilitate students' gradual transition from externally regulated learning to autonomous, reflective, and self-regulated learning activity.

Keywords: language portfolio, methodological model, learning and cognitive activity, learner autonomy, self-regulated learning, e-portfolio, reflection, self-assessment, formative assessment, individual learning trajectory.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Zamonaviy ta'lim muhiti talabadan nafaqat o'quv materialini o'zlashtirishni, balki o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, axborot manbalarini tanlash, natijalarni tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash qobiliyatini ham talab etadi. Shu bois talabani faol subyekt sifatidagi pozitsiyasini kuchaytiradigan va mustaqil o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantiradigan metodik tizimlarni ishlab chiqish dolzarbdir.

Chet tillarni o'qitish jarayonida til kompetensiyasining shakllanishi uzoq muddatli va dinamik jarayon bo'lib, uni faqat oraliq yoki yakuniy nazorat natijalari bilan to'liq tavsiflab bo'lmaydi. Talabani muayyan davr davomida qanday rivojlangani, qaysi strategiyalardan foydalangani, qaysi qiyinchiliklarga duch kelgani va ularni qanday bartaraf etgani ham ta'lim samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridir. "Til portfeli" ushbu jarayonni kuzatish, dalillashtirish va refleksiv tahlil qilishga imkon beruvchi metodik vosita sifatida e'tiborga loyiq.

"Til portfeli" talabani yozma va og'zaki ishlari, individual yutuqlari, refleksiv qaydlari, o'z-o'zini baholash natijalari hamda rivojlanish dalillarini tizimli jamlashga xizmat qiladi. Biroq portfelning mavjudligi o'z-o'zidan o'quv-biluv faoliyatining rivojlanishini ta'minlamaydi. Uning samaradorligi topshiriqlarning maqsadga muvofiqligi, baholash mezonlarining aniqligi, refleksiya va feedbackning qanday tashkil etilgani hamda o'qituvchi bilan talaba faoliyatining qay darajada muvofiqlashtirilganiga bog'liq.

Shu sababli metodik model maqsad, topshiriq, portfolio dalili, baholash va refleksiyani yagona tizimga birlashtirishi; o'qituvchini fasilitator, talabani esa o'z ta'limini boshqaruvchi subyekt pozitsiyasiga olib chiqishi kerak.

Mazkur tadqiqotning maqsadi "Til portfeli" asosida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan strukturaviy-funksional metodik modelni asoslash hamda uni oliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Modelning tarkibiy komponentlari, joriy etish bosqichlari, metodik vositalari, baholash mezonlari va kutiladigan natijalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Portfolio pedagogikasining nazariy asoslarida F.L. Paulson, P.R. Paulson va C.A. Meyer portfolioni talabani muayyan sohada sa'y-harakati, rivojlanishi va erishgan natijalarini namoyon qiladigan maqsadli ishlar to'plami sifatida izohlaydilar [1]. Mualliflarning fikricha, portfolio tarkibiga materiallarning shunchaki kiritilishi yetarli emas: talaba materiallarni tanlashda ishtirok etishi, mezonlarni bilishi va o'z faoliyati yuzasidan refleksiya qilishi zarur. Bu yondashuv "Til portfeli" da talabani passiv egasi emas, uning mazmunini shakllantiruvchi subyekt bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

V. Klenowski portfolioning samaradorligini uning o'quv mazmuni va baholash tizimiga integratsiyalashuvi bilan bog'laydi [2]. Bu til portfelini qo'shimcha papka emas, o'quv maqsadi, topshiriq va baholashni birlashtiruvchi metodik tizim sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

P. Benson til o'rganishdagi learner autonomy tushunchasini talabani o'z ta'lim jarayonini boshqarish imkoniyati bilan bog'laydi [3]. Avtonomlik pedagogik rahbarlikning yo'qolishi emas, balki boshqaruv mas'uliyatining bosqichma-bosqich talaba o'tishidir. Shu bois til portfeli modeli o'qituvchi ko'magidan hamkorlikdagi boshqaruvga, undan esa talabani o'z-o'zini boshqarishiga o'tishni nazarda tutishi lozim.

B.J. Zimmerman self-regulated learningni talabani o'z maqsadlariga erishish uchun fikrlari, motivatsiyasi va xatti-harakatlarini faol boshqarishi bilan tavsiflaydi [4]. Rejalashtirish, faoliyatni amalga oshirish va refleksiya bosqichlarining siklik bog'liqligi portfolio metodikasining tabiiy mantiqiga mos keladi: talaba maqsad belgilaydi, topshiriq bajaradi, natijani portfelida aks ettiradi, baholaydi va yangi maqsadni shakllantiradi.

D.J. Nicol va D. Macfarlane-Dick formativ baholash va feedbackni self-regulated learning nuqtai nazaridan tahlil qilib, samarali qayta aloqa talabani maqsad, mavjud natija va kutiladigan natija o'rtasidagi farqni anglashiga yordam berishini ko'rsatadilar [5]. Til portfeli modelida o'z-o'zini baholash, tengdoshlar bahosi va o'qituvchi feedbackning birgalikda qo'llanishi shu nazariy asosga tayanadi.

L. Fernsten va J. Fernsten portfolio assessmentda aniq savollar, mezon va rubrikalarga tayangan refleksiyani zarurligini ko'rsatadilar [6].

Elektron portfolio bo'yicha tadqiqotlarda uning samarasi platformaning o'ziga emas, maqsad va pedagogik qo'llash kontekstiga bog'liqligi, rivojlantiruvchi portfolio esa assessment for learning tamoyiliga yaqin bo'lishi kerakligi qayd etiladi [7;8].

A. Alexiou va F. Paraskeva e-portfolioni self-regulated learningni rivojlantirish vositasi sifatida qo'llab, texnologik imkoniyatlarni pedagogik jarayon bilan uyg'unlashtirish zarurligiga e'tibor qaratadilar [9]. G. Cheng va J. Chau tilni rivojlantirish dasturida e-portfolio natijalari yuqori darajadagi kognitiv, metakognitiv va tengdoshlar bilan o'rganish strategiyalari bilan bog'langanini aniqlaganlar [10]. Bu natijalar talabalarni portfolio bilan ishlashga maxsus tayyorlash

zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar portfolio, avtonomiya, o'z-o'zini boshqarish, refleksiya va baholashni alohida yoritadi. Ularni til portfeli asosida yagona metodik tizimga birlashtirish va amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etish mexanizmlarini aniqlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan, refleksiv va self-regulated learning yondashuvlari integratsiyasiga tayandi. "Til portfeli" o'quv maqsadi, faoliyat, monitoring, refleksiya va keyingi vazifalarni bog'lovchi metodik tizim sifatida talqin qilindi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabani individual ehtiyojlari, til o'rganish maqsadlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Faoliyatga asoslangan yondashuv o'quv-biluv rivojlanishini tayyor bilimni o'zlashtirish natijasi emas, balki maqsadli faoliyat jarayonidagi sifat o'zgarishi sifatida ko'radi. Kompetensiyaviy yondashuv portfel mazmunini mavzular soni bilan emas, balki shakllangan kommunikativ, kognitiv, refleksiv va o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalari bilan bog'laydi.

Refleksiv va self-regulated learning yondashuvlari talabani maqsad belgilashi, faoliyatini kuzatishi, natijalarni tahlil qilishi va zarur strategik tuzatishlarni amalga oshirishini yagona siklda birlashtiradi.

Tadqiqotda nazariy va qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, pedagogik modellash, kontent-tahlil, strukturaviy-funksional va prognostik tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar portfolio modelining komponentlarini aniqlash, ularning funksional aloqalarini asoslash, amaliyotga joriy etish bosqichlarini belgilash hamda o'quv-biluv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

1-jadval. Metodik modelning tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Asosiy vazifasi
Maqsadli	Umumiy va individual o'quv maqsadlari	Rivojlanish yo'nalishini belgilash
Mazmuniy	Til topshiriqlari, loyihalar, portfolio dalillari	O'quv-biluv faoliyatini mazmun bilan ta'minlash
Jarayonli-texnologik	Portfolio yuritish, hamkorlik, e-portfolio, feedback	Faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish
Refleksiv-baholash	Self/peer assessment, rubrika, refleksiya	Natijalarni anglash va ehtiyojlarni aniqlash
Natijaviy	Mustaqillik, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish	Sifat o'zgarishlarini aniqlash

Modelni ishlab chiqishda maqsad, mazmun, faoliyat, refleksiya, baholash va natijaning uzviyligi asosiy tamoyil sifatida qabul qilindi. Maqsadli komponent individual rivojlanish vazifalarini belgilaydi; mazmuniy komponent portfolio uchun pedagogik ahamiyatli dalillarni shakllantiradi; jarayonli-texnologik komponent faoliyatni tashkillashtiradi; refleksiv-baholash komponenti o'z-o'zini va o'zaro baholashni feedback bilan birlashtiradi; natijaviy komponent esa o'quv-biluv faoliyatidagi sifat o'zgarishlarini tavsiflaydi.

Modelni amaliyotga tatbiq etish besh bosqichda ko'zda tutiladi: diagnostik-tayyorlov; maqsadni individuallashtirish; faoliyat-portfoliolash; refleksiya-baholash; korreksion-prognostik. Mazkur bosqichlar chiziqli yakunlanmaydi: korreksion-prognostik bosqichda aniqlangan yangi ehtiyoj navbatdagi siklning yangi individual maqsadiga aylanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotning asosiy nazariy natijasi sifatida "Til portfeli" asosida talabalarining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirishning strukturaviy-funksional metodik modeli ishlab chiqildi. Model talabani reproduktiv faoliyatdan faol, undan esa mustaqil-refleksiv faoliyatga bosqichma-bosqich o'tishini ko'zda tutadi. Unda til kompetensiyasini rivojlantirish bilan o'quv faoliyatini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish parallel jarayon sifatida qaraladi.


Modelning maqsadli komponentida o'quv dasturining umumiy talablarini talabani individual ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish nazarda tutiladi. Talaba o'zining mavjud holati va kutilayotgan natijasi o'rtasidagi farqni anglab, o'qituvchi ko'magida shaxsiy vazifalarni belgilaydi. Bu holat maqsadni tashqi topshiriqdan shaxsiy rivojlanish regulatoriga aylantiradi [4].

Mazmuniy komponent portfelga kiritiladigan materiallarning maqsadli tanlanishiga asoslanadi. Bajarilgan barcha ishlarni jamlash o'rniga talaba o'z rivojlanishini eng aniq ifodalovchi yozma ish, loyiha, taqdimot, audio-video mahsulot yoki refleksiv yozuvni tanlaydi va tanlovini asoslaydi. Paulson va hammualliflarning yondashuviga ko'ra, aynan tanlash va refleksiya portfolio pedagogikasining asosiy belgilaridandir [1].

Jarayonli-texnologik komponentda boshqaruv funksiyasining bosqichma-bosqich o'zgarishi muhim natija sifatida aniqlandi. Dastlab o'qituvchi portfolio tuzilishi, mezonlari va refleksiv savollarni beradi; keyingi bosqichlarda tanlov va nazoratning bir qismi talabaga o'tadi. Shu asosda "o'qituvchi boshqaruvi – hamkorlikdagi boshqaruv – talabani o'z-o'zini boshqarishi" tamoyili ishlab chiqildi [3].

Refleksiv-baholash komponentida baholash yakuniy hukm emas, keyingi rivojlanish uchun axborot manbai sifatida ko'riladi. Modelda o'z-o'zini baholash, tengdoshlar bahosi va o'qituvchi feedbackining birligi ko'zda tutiladi. Talaba "nimaga erishdim?", "qanday erishdim?" va "keyingi safar nimani o'zgartiraman?" savollariga javob berish orqali retrospektiv tahlilni prognostik qarorga aylantiradi [5; 6].

Natijaviy komponentda samaradorlik faqat fan bo'yicha baho bilan emas, balki talabaniy maqsad belgilashi, o'quv strategiyasini tanlashi, dalillarni baholashi va keyingi rivojlanish yo'nalishini mustaqil belgilashi bilan ifodalanadi. Shu maqsadda motivatsion-regulyativ, kognitiv-operatsion, refleksiv-baholash va prognostik-avtonom mezonlar ajratildi.



1-rasm. "Til portfeli" asosida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirishning metodik modeli

Modelni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi besh o'zaro bog'langan bosqichda tashkil etildi. Diagnostik-tayyorlov bosqichida talabaniy boshlang'ich til tayyorgarligi, o'quv motivatsiyasi, mustaqil ishlash va refleksiyaga tayyorligi aniqlanadi. Maqsadni individuallashtirish bosqichida ushbu ma'lumotlar asosida shaxsiy rivojlanish vazifalari belgilanadi. Faoliyat-portfoliolash bosqichida talaba topshiriqlarni bajaradi va rivojlanishini ifodalovchi dalillarni tanlaydi. Refleksiya-baholash bosqichida materiallar self/peer assessment hamda o'qituvchi feedbacki asosida tahlil qilinadi. Korreksion-prognostik bosqichda esa yangi ehtiyojlar va keyingi vazifalar aniqlanadi.

Modelning ilmiy-metodik o'ziga xosligi portfelni yakuniy mahsulot emas, o'quv-biluv faoliyatini boshqaradigan siklik mexanizm sifatida tashkil etishidir. Uning qiymati materiallar soni bilan emas, ularning maqsadli tanlanishi, mezonli baholanishi va keyingi faoliyatni belgilashda qo'llanishi bilan aniqlanadi.

Tadqiqot tahlili uchta asosiy transformatsiyani ko'rsatdi: tashqi maqsaddan individual maqsadga; tashqi baholashdan o'z-o'zini baholashga; o'qituvchi boshqaruvidan o'z-o'zini boshqarishga o'tish. Birinchi transformatsiya o'quv faoliyatiga shaxsiy ma'no beradi, ikkinchisi refleksiv pozitsiyani rivojlantiradi, uchinchi esa learner autonomy va self-regulated learningning amaliy ko'rinishini shakllantiradi.

Cheng va Chau natijalari e-portfolio bilan kognitiv hamda metakognitiv strategiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi [10]. Shu bois platformaning o'zi yetarli emas: u aniq metodik maqsad, refleksiya va feedback tizimi bilan uyg'unlashtirilishi lozim [7;9].

Shunday qilib, model "Til portfeli"ni baholashning yordamchi vositasidan talabaniy o'z ta'limini boshqarish qobiliyatini shakllantiruvchi metodik tizim darajasiga olib chiqadi. Bu tizim maqsadli rejalashtirish, faoliyat, dalillarni tanlash, refleksiv baholash va individual rivojlanishni prognozlashning uzviy birligiga tayangan holda ishlaydi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy-metodologik tahlil "Til portfeli" asosida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish jarayonini alohida topshiriqlar yoki baholash shakllari yig'indisi emas, balki yaxlit metodik tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Portfolio pedagogikasi, learner autonomy, self-regulated learning, formativ baholash va refleksiv ta'limga oid yondashuvlar maqsad, faoliyat, dalil, baholash, refleksiya va keyingi rivojlanishni yagona siklga birlashtirish

imkonini berdi.

Tadqiqot natijasida maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik, refleksiv-baholash va natijaviy komponentlardan tashkil topgan strukturaviy-funksional metodik model ishlab chiqildi. Modelning amaliy mexanizmi diagnostik-tayyorlov, maqsadni individuallashtirish, faoliyat-portfoliolash, refleksiya-baholash va korreksion-prognostik bosqichlar orqali amalga oshiriladi. So'nggi bosqichda aniqlangan yangi ehtiyoj navbatdagi o'quv siklining maqsadiga aylanadi.

Model samarasi tashqi maqsaddan individual maqsadga, tashqi baholashdan o'z-o'zini baholashga va o'qituvchi boshqaruvidan talabani o'z-o'zini boshqarishiga o'tish bilan bog'liq. Portfolio materiallarining miqdori emas, ularning maqsadli tanlanishi va refleksiv ishlatilishi ustuvor ahamiyatga ega.

Model samaradorligini aniqlash uchun motivatsion-regulyativ, kognitiv-operatsion, refleksiv-baholash va prognostik-avtonom mezonlar hamda reproduktiv, faol va mustaqil-refleksiv darajalar belgilandi. Ushbu tizim natijani faqat akademik baho bilan emas, talabani o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatidagi sifat o'zgarishlari orqali baholash imkonini beradi.

Umuman, taklif etilgan model "Til portfeli"ni baholashning yordamchi vositasi sifatidagi tor talqindan chiqarib, talabani maqsad qo'yish, mustaqil faoliyat yuritish, o'z natijalarini baholash, refleksiya qilish va individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi kompleks pedagogik mexanizm sifatida talqin qilishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Paulson F. L., Paulson P. R., Meyer C. A. What Makes a Portfolio a Portfolio? // Educational Leadership. – 1991. – Vol. 48, No. 5. – P. 60–63. URL: [havola](#)
2. Klenowski V. Developing Portfolios for Learning and Assessment: Processes and Principles. – London: RoutledgeFalmer, 2002. URL: [havola](#)
3. Benson P. Teaching and Researching Autonomy in Language Learning. 2nd ed. – London: Routledge, 2011. URL: [havola](#)
4. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70. URL: [havola](#)
5. Nicol D. J., Macfarlane-Dick D. Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice // Studies in Higher Education. – 2006. – Vol. 31, No. 2. – P. 199–218. URL: [havola](#)
6. Fernsten L., Fernsten J. Portfolio Assessment and Reflection: Enhancing Learning through Effective Practice // Reflective Practice. – 2005. – Vol. 6, No. 2. – P. 303–309. URL: [havola](#)
7. Abrami P. C., Barrett H. Directions for Research and Development on Electronic Portfolios // Canadian Journal of Learning and Technology. – 2005. – Vol. 31, No. 3. URL: [havola](#)
8. Barrett H. C. Researching Electronic Portfolios and Learner Engagement: The REFLECT Initiative // Journal of Adolescent & Adult Literacy. – 2007. – Vol. 50, No. 6. – P. 436–449. URL: [havola](#)
9. Alexiou A., Paraskeva F. Enhancing Self-Regulated Learning Skills through the Implementation of an E-Portfolio Tool // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2010. – Vol. 2, No. 2. – P. 3048–3054. URL: [havola](#)
10. Cheng G., Chau J. Exploring the Relationship between Students' Self-Regulated Learning Ability and Their ePortfolio Achievement // The Internet and Higher Education. – 2013. – Vol. 17. – P. 9–15. URL: [havola](#)